O‘QITUVCHILARNING ERGONOMIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI VA TIZIMI

Xakimova M.F.,
TDIU Innovatsion ta’lim kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘qituvchilarning ergonomika madaniyatini rivojlantirishning pedagogik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ergonomika madaniyati tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, o‘qituvchi mehnat faoliyatidagi o‘rni hamda uni rivojlantirish texnologiyalari va tizimli yondashuvlar asosida yoritiladi. Shu bilan birga, ergonomik ta’lim muhitini shakllantirish, sog‘lom va samarali mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan uslublar va tavsiyalar keltiriladi. Ta’lim tizimida ergonomik yondashuvni joriy etishning natijadorligi va samaradorligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: ergonomika, ergonomika madaniyati, o‘qituvchi faoliyati, ta’lim tizimi, pedagogik texnologiya, mehnat muhiti, salomatlik, samaradorlik, ergonomik ta’lim.

Abstract: this article analyzes the pedagogical and practical aspects of developing teachers' ergonomic culture. The concept of ergonomic culture, its importance in the educational process, its role in the teacher's work, and its development are explained based on technologies and systemic approaches. At the same time, methods and recommendations are presented aimed at forming an ergonomic educational environment and creating healthy and productive working conditions. The effectiveness and efficiency of introducing an ergonomic approach in the education system are analyzed.

Keywords: ergonomics, ergonomic culture, teacher activity, education system, pedagogical technology, working environment, health, productivity, ergonomic education.

Tarbiyalanuvchilarning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli jarayonda muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga erishishga yo‘naltirilgan, ta’lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayonni tashkil etish maktab o‘qituvchilaridan pedagogik ergonomik kompetensiyaga asoslangan ergonomik madaniyatni talab etadi.

Biz malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida tinglovchi-o‘qituvchilarni ergonomik faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkillashtirish va ularning tayyorgarlik darajasiga, pedagogik ergonomika bo‘yicha shakllanishi zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarga, o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlar mazmuniga va ta’lim dasturlarining mazmuniga belgilangan talablarning yo‘nalishini ifodalovchi va ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘zlangan natijalarga erishishni, o‘qituvchilarning ergonomik madaniyatni rivojlanishini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir- birini o‘zaro to‘ldiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan texnologiya va tizimni taxlil qilib(1-rasm), o‘qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlanishi o‘quv bilish faoliyati orqali ta’minlanuvchi ergonomik kompetensiyaga bevosita bog‘liq ekanligi yoritib berilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Ergonomik bilimlarning ma’nosini nazariy anglash natijasida, zamonaviy texnika va texnologiyalar yutuqlari amalda samarali bo‘lishi uchun maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilarining ergonomik madaniyatining ma’lum bir minimal darajasi mutlaqo zarur degan xulosa kelib chiqadi. E.A.Klimov o‘z ishida “aholining ongining g‘oyalar, fanga mos tushunchalar bilan ma’lum bir minimal to‘yinganligi

mavjud. Bu oxir-oqibat rivojlanish uchun, ba’zan esa jamiyat hayotini saqlab qolish uchun juda zarur bo‘lgan tegishli madaniyatning namoyonidir” degan edi.

Bizning fikrimizcha B.S.Gershunskayaning nuqtai nazari e’tiborga loyiqdir, u “savodxonlik - ta’lim - kasbiylik – madaniyat” turkumini ko‘rib chiqadi, “madaniyat gumanitar, badiiy bo‘lishi shart emas, bu texnik, texnologiyaga ham tegishli - deb hisoblaydi. Inson tarbiyasi va kasbiy salohiyatining eng yuqori namoyon bo‘lishi madaniyat” ekanligini izohlaydi.

Shuni hisobga olgan holda biz ergonomik madaniyatning talab qilinadigan minimal darajasi - ergonomik savodxonlik ekan degan xulosaga keldik. Keng ma’noda ergonomik savodxonlik - bu ergonomik tizimlarning “xulq-atvori”ni ongli ravishda anglash, mehnat tamoyillari va inson imkoniyatlari va mehnat vositalari(o‘qitish) to‘g‘risida bilim, bu vositalarni bevosita o‘z faoliyatida samarali qo‘llash qobiliyatidir. Ergonomik savodxonlik zamonaviy texnologiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalaridan foydalangan holda ish va o‘quv faoliyatida muhim omil hisoblanadi, buning o‘rnini boshqalar bilan to‘ldirib bo‘lmaydi.

Axborot yo‘nalishi o‘qituvchining ma’lumotni qaerdan va qanday olishi, tahlil qilishi, qayta ishlashi (hissiy organlar, belgilar, tasvirlar, tovushlar va boshqalar) shaklida namoyon bo‘lishi, o‘quv muhitini to‘liq texnologik rivojlantirish va o‘qituvchi ergonomik madaniyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish sharoitida xavfsizlik, qulaylik, faoliyatni oqilona tashkil etish va intellektual ish samaradorligini oshirishga bo‘lgan talablari bilan "pedagogik ergonomika" haqida fikrlar asoslanadi.

Tinglovchi-o‘qituvchilarning pedagogik ergonomikani o‘rganishlari bilan bir qatorda sodda, lekin etarli darajada asoslangan ergonomik ta’riflarni mustaqil o‘zlashtirish, kengroq fikrlash, turli metodlar asosida muammolar echimini topishni o‘rganib olishlariga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Yuqorida zikr etilganlar asosida o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyati tarkibiy qismlari, ushbu jarayon murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ergonomikaga oid kompetensiya printsiplarini, mezonlari, bosqichlari, yondashuvligi, aspektlari, metodik sharoitlari, kutilayotgan natija komponentlarining shakllantiradi.

Tinglovchi-o‘qituvchilarlar uchun amalay mashg‘ulot mavzularini tanlashda pedagogik ergonomika mazmunining integrativ masalalarini chuqurroq o‘rganilishini ta’minlash maqsadida fanlararo yondashuvga asoslaniladi. Asosiy e’tibor “Ergonomika”, “Pedagogik ergonomika”, “Ta’limning ergonomik sharoitlari” kabi tayanch iboralarga va pedagogik ergonomikaning fan sifatida rivojlanish tarixi, ta’lim muhitini ergonomik loyihalash bosqichlariga, shuningdek Xalq ta’limi vaziri tamonidan 2004 yil 15- mayda tasdiqlangan “umumta’lim maktablarini jihozlash meyorlari”da ko‘rsatilgan o‘qitish vositalari, jihoz va uskunalar, xonalarning nomlanishini va ulardan foydalanish usullari, “0375-20 sanQvaM” raqamli O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, normalari va gigienik normativlarini, shuningdek ta’lim muassasalaridagi mebel, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to‘g‘risidagi “yo‘riqnoma” talablariga qaratildi.

O‘qituvchi ergonomik madaniyatining rivojlanishi bevosita ergonomik

kompetensiyaga bog‘liq ekanligi malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasasi kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan tinglovchi- o‘qituvchilarning malaka oshirish toifasiga muvofiq pedagogik ergonomika mavzusi bo‘yicha qiziqishlari va moyilligini aniqlab, ergonomik madaniyat soxasida individual psixologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadlarida tanishuv testlari, savol-javoblar, ishbilarmon o‘yinlar, seminar-trening, davra suhbatlari, uchrashuvlar kabi qator tadbirlarni tashkil etishda e’tiborga olinadi.

Professor-o‘qituvchilarning mavjud ilmiy-nazariy bilimlarni bevosita amaliyotga tatbiq etish hamda tinglovchi-o‘qituvchilarning bilim olishlari va shaxsiy rivojlanishlarini hamda ergonomik madaniyatlarini rivojlanib borishini ta’minlovchi shart-sharoitlarni yaratish yo‘nalishlari yoritib beriladi.

Mazkur fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, malaka oshirish ta’lim muassasasi kafedralari muassasa ustavida belgilab qo‘yilgan o‘z funktsional vazifalarini amalga oshirish bilan bir qatorda kafedra tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning mazmun-mohiyati yuqorida keltirilgan funktsiyalarni amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi va pedagogikaning ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning ish o‘rinlariga oqilona moslashuvini ta’minlaydigan “pedagog-o‘quvchi-ta’lim vositasi-muxit” ergonomik tizimda, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida, ta’lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta’minlashda, malaka oshirish ta’lim muassasasi kafedralarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va boshqarish zaruriyatini belgilab beradi.

Ergonomik madaniyatni rivojlantirish yuzasidan tayyorlangan pedagogik ergonomika mavzularini malaka oshirish ta’limi jarayoniga joriy etishda o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘limi xodimi va malaka oshirish ta’lim muassasasi buyrug‘i bilan tuzilgan o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishchi guruhi vakili (mas’ul, gurux mas’uli yoki kurs raxbari) guruhda mashg‘ulot o‘tuvchi professor-o‘qituvchilarga yuklatilgan vazifalar, ergonomik madaniyatni rivojlantirishga asos bo‘luvchi, taqdim etilayotgan pedagogik ergonomika mavzularini tinglovchi - o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlash yuzasidan vazifalar belgilab beriladi.

O‘qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o‘qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o‘z o‘rnini topib keta olishi yosh o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq. Jamoaning yordamidan yuz o‘girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o‘qituvchi bo‘lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining kasbiy shakllanishi o‘z-o‘zini tarbiyalab borishga, o‘z ustida tinmay ishlashga va o‘z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog‘liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, isteododli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo‘lishi mumkin.

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi, o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimida asosiy o‘rin egallagan malaka oshirish o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo‘nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o‘qituvchidan o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiya talablarini to‘g‘ri tushunish, tashabbuskorlik, o‘z fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do‘stona xavfsiz va qulay muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o‘qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko‘nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shaxsni rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash uchun ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish o‘quv jarayonini takomillashtirishning ergonomik muammolarini hal qilmasdan mumkin emasligi kelib chiqadi.

Shu bilan birga, ko‘rib chiqilayotgan muammo bilan bog‘liq masalalar orasida qo‘shimcha o‘rganish va ishlab chiqishni talab qiladigan masalalar ham mavjud. Xususan, bu ergonomik tahlil va yangi va noan’anaviy pedagogik texnologiyalarni baholash masalasiga tegishli. Ushbu yondashuvni amalga oshirishga qodir o‘qituvchilarning ergonomik tayyorgarligi muammosi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar o‘tkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M.X. Ta’lim jarayonida ergonomikaning o‘rni va ahamiyati. Toshkent: Fan nashriyoti. 2022

2. Xalilov, F.X. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar. Samarqand: SDTI nashri.2020

3. Yuldasheva, Sh.N. O‘qituvchi faoliyatida sog’lom mehnat muhitini tashkil etish omillari. Toshkent: Ilm va taraqqiyot.2021

4. Sokolova, N.A. Osnovo‘ ergonomiki v professionalnoy deyatelnosti prepodavatelya. Moskva: Yurayt.2019

5. Mahmudov, T.T. Inson kapitalini rivojlantirishda ergonomikaning roli. Jurnal: Ilmiy izlanishlar, №2, 45–50-betlar. 2023